

## FARG'ONA VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI


\* tezkor ma'lumot

(2020-yil yanvar-mart)

Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlariga tarqalgan koronavirus (COVID-2019) pandemiyasi xalqaro integratsiyasining kamayishiga hamda davlat chegaralarning yopilishiga sabab bo'ldi. Bu esa viloyatning tashqi sohasi hamda aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

2020-yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, viloyatimizda tashqi savdo aylanmasi 279,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 97,4 % ni tashkil qildi. Shu jumladan, eksport hajmi 105,7 mln. AQSh dollarga (-3,1 % ga pasaydi) va import hajmi 173,7 mln. AQSh dollariga (2019 yilning mos davriga nisbatan -2,4 % ga pasaydi) yetdi. Tashqi savdo saldosi -68,0 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

### \*Farg'ona viloyati tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)




So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikasiya qilinishi, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport sezilarli


o'zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo'shilgan qiymati yuqori hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo'naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

### 2019-2020 yillarda tovar va xizmatlarning eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)

2019-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart



2020-yil yanvar-mart oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi ham 2019-yilning yanvar-mart oylarining mos davriga nisbatan deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

### Viloyat tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % da
Xitoy	64,7	13,8	50,9	23,2
Rossiya	53,6	19,9	33,7	19,2
Qozog'iston	58,2	6,0	52,1	20,8
Qirg'iziston	32,6	25,5	7,1	11,7

(mln. AQSh dolları)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, % da
Turkiya	22,3	13,4	8,8	8,0
Koreya Respublikasi	7,1	2,5	4,6	2,5
Misr	4,1	4,1	0,01	1,5
Polsha	4,6	4,0	0,1	1,6
Tojikiston	4,5	2,2	2,3	1,6
Ukraina	2,3	1,5	0,8	0,8

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 55,6 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 124,2 % ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning tashqi savdo aylanmasi 2020-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning shu davrga nisbatan 23,5 % pasaygan bo'lsa, viloyatning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi esa 44,3 ga yetdi.

## EKSPORT.

Hozirgi paytda yer yuzining deyarli barcha davlatlariga kirib borgan koronavirus (COVID-2019) pandemiyasi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, eksportning barqaror o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishishda to'siq bo'lmoqda.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda eksportyorlar soni 322 tani tashkil etib, ular tomonidan 105,7 mln. AQSH dollarlik eksport hajmi (2019-yilning mos davriga nisbatan 3,1 % ga pasaydi) amalga oshirildi. Eksport tarkibida tovarlar

98,4 % ulushga ega, bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (18,6 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (2,8 %), energiya manbaalari va neft mahsulotlari (1,5 %), paxta tolasi (0,8 %), qora va rangli metallar (0,2 %), mashina va uskynalar (0,2 %), shuningdek xizmatlar eksporti (1,9 %) va boshqalar (74,0 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (mln.AQSh dollari)

### 2019-yil yanvar-mart



Paxta hom ashyosi

0,8



Oziq-ovqat mahsulotlari

27,0

19,7



Kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar

0,8

2,9



Xizmatlar

0,2

0,2

### 2020-yil yanvar-mart



Energiya manbalari va neft mahsulotlari

2,9

1,6



Qora va rangli metallar

0,1

0,2



Mashina va asbob-uskunalar

0,1

0,3



Boshqalar


76,2

78,2

## Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajmga nisbatan, % da
<b>Eksport</b>	<b>105,7</b>	<b>96,9</b>	<b>100</b>	<b>56,2</b>	<b>125,4</b>	<b>100</b>	<b>49,5</b>	<b>77,0</b>	<b>100</b>
<b>Paxta tolasi</b>	0,8	100	0,8	0,0	0,0	0,0	0,8	100	0,5
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	19,7	72,9	18,6	16,6	97,9	29,6	3,1	30,6	6,3
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	2,9	355,8	2,8	2,9	356,3	5,2	0,0	0,0	0,0
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	1,6	53,7	1,5	0,7	40,0	1,2	0,9	70,7	1,9
<b>Qora va rangli metallar</b>	0,2	15,9m	0,2	0,2	17,0m	0,3	0,03	11,9 m	0,1
<b>Mashina va asbob - uskunalar</b>	0,3	229,1	0,2	0,3	281,4	0,5	0,0	0,0	0,0
<b>Xizmatlar</b>	2,0	99,6	1,9	1,3	78,2	2,3	0,7	197,1	1,5
<b>Boshqalar</b>	78,2	102,7	74,3	34,3	145,1	61,0	43,9	83,6	89,7

### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (2019-yilga nisbatan, % da)




Shuningdek, tovar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan -3,1 % ga pasaydi.


Xizmatlar eksporti hajmi 2,0 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 1,9 % tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (0,007 mln. AQSh dollar kamaydi) -0,4 % pasayganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi turizm xizmatlari, sog'liqni saqlash bo'yicha xizmatlar hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

## 2019-2020-yanvar-mart oylarida tovarlar va xizmatlar eksporti (mln. AQSh dollarari)



## Viloyat eksportida asosiy yirik hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-mart)





## Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkiya va Xitoy Xalq Respublikasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 61,7 % ini tashkil qiladi. Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya Federatsiyasiga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan energiya manbaalari va neft mahsulotlari, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhalidan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

### Farg'ona viloyatining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, % da		O‘rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
<b>Qirg‘iziston</b>	12,6	25,6	11,6	24,2	4	1
<b>Rossiya</b>	22,4	19,9	20,6	18,9	2	2
<b>Xitoy</b>	27,7	13,6	25,4	13,1	1	3
<b>Turkiya</b>	16,3	13,4	14,9	12,7	3	4
<b>Qozog‘iston</b>	3,5	6,0	3,2	5,7	9	5
<b>Koreya Respublikasi</b>	1,6	2,4	1,5	2,3	12	6
<b>Polsha</b>	5,2	4,5	4,7	4,2	5	7
<b>Misr</b>	2,3	4,1	2,1	3,9	11	8
<b>Afg`oniston</b>	0,6	3,8	0,5	3,6	13	9
<b>Ukraina</b>	3,2	1,5	2,9	1,4	8	10
<b>Tojikiston</b>	2,7	2,2	2,5	2,1	10	11



## Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi

<b>Marokko</b>	0,3	1,0	0,3	1,0	15	11
<b>Bangladesh</b>	4,6	0,8	4,2	0,8	6	13
<b>Belorys</b>	0,3	0,4	0,2	0,4	14	16
<b>Belgiya</b>	0,3	0,5	0,2	0,4	16	15
<b>Vietnam</b>	2,6	0,8	2,4	0,8	7	14

### Farg'ona viloyatining ayrim davlatlar bilan eksport tarkibi (yanvar-mart)

(mln. AQSh doll.)

	Rossiya Federatsiyasi		Qirg'iziston Respublikasi	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
<b>Jami eksport</b>	<b>22,4</b>	<b>19,9</b>	<b>12,6</b>	<b>25,6</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	1,9	4,1	9,5	6,9
<b>Kimyoviy mahsulotlar va undan tayyorlangan buvumlar</b>	0,001	0,004	0,5	1,8
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	0,6	-	0,3	0,3
<b>Qora va rangli metallar</b>	-	-	0,002	0,09
<b>Mashina va uskunalar</b>	0,03	0,2	0,009	
<b>Xizmatlar</b>	1,6	1,2	0,02	0,05
<b>Boshqalar</b>	18,2	14,5	2,4	16,3

## Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2020-yilning yanvar –mart oylarida jami 26,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 16,4 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati -4,8 % pasaydi). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2020-yilning yanvar-mart oyida 17,4 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar 6,2 mln. AQSh dollariga yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 ming tonnaga kam miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 5,8 ming tonna meva va rezavorlar 7,5 mln. AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,7 ming tonnaga ko'pdir.



Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar-mart oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 16,4 mln. AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 4,8 % ga kamaydi).

### Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2019-yil yanvar-mart			2020-yil yanvar-mart		
	Ming. tonna	Ming. AQSh doll.	Ulushi, % da	Ming. tonna	Ming. AQSh doll.	Ulushi, % da
Qozog'iston	6,2	2,4	1,4	10,4	5,0	3,0
Rossiya federatsiyasi	3,9	1,7	1,0	5,7	3,8	2,3
Qirg'iziston	5,4	8,7	5,0	8,7	6,9	4,2
Tojikiston	0,4	0,6	0,3	0,05	0,05	0,0
Ukraina	5,9	2,2	1,3	0,5	0,4	0,2
Xitoy XR	0,03	0,02	0,0	0,02	0,02	0,0

### IMPORT

Joriy yilning yanvar-mart oylarida viloyatda importyorlar soni 712 tani tashkil etib, ular tomonidan 173,6 mln. AQSH dollarlik import hajmi (2019-yilning mos davriga nisbatan 2,4 % ga pasaydi) amalga oshirildi. Import tarkibida eng katta ulush energiya manbalari va neft maxsulotlari (27,8 %), mashina va asbob uskunalar (25,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (13,6 %), kimyo

mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (9,9 %), qora va rangli metall (8,9 %), import xizmati (0,3 %) hamda boshqalar (13,9 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

## Tovar va xizmatlar importi tarkibi (mln.AQSh dollar'i)




## Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da	mln. AQSh doll.	2019-yilga nisbatan, % da	umumiy hajimga nisbatan, % da
<b>Import</b>	<b>173,6</b>	<b>97,6</b>	<b>100</b>	<b>99,1</b>	<b>123,5</b>	<b>100</b>	<b>74,7</b>	<b>76,3</b>	<b>100</b>
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	23,6	157,4	13,6	20,5	188,2	20,7	3,1	75,6	4,2

<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	17,1	86,3	9,9	5,3	121,1	5,4	11,8	76,4	15,9
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	48,3	193,7	27,8	48,2	194,0	48,6	0,1	117,0	0,1
<b>Qora va rangli metallar</b>	15,5	80,7	8,9	10,0	108,5	10,0	5,5	55,1	7,4
<b>Mashina va asbob- uskunalar</b>	44,4	75,2	25,6	1,2	45,4	1,2	43,2	76,7	58,0
<b>Xizmatlar</b>	0,6	43,9	0,3	0,0	0,0	0,0	0,6	45,3	0,8
<b>Boshqalar</b>	24,1	62,5	13,9	13,9	49,4	14,1	10,2	98,3	13,6

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-mart oylari davomida past o'sish sur'atlari kuzatilgan.

### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (2019-yilga nisbatan, % da)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2020-yilning yanvar-mart oyalarida import qilingan tovar va xizmatlar 2019-yilning yanvar-mart oyilariga nisbatan -2,4 % ga kamaygan.

### Farg'ona viloyatiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh dollari.		Ulushi, % da		O'rni	
	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.	2019-yil.	2020-yil.
<b>Qozog'iston</b>	37,1	52,1	20,9	30,2	1	1
<b>Xitoy</b>	49,5	50,9	27,8	29,3	3	2
<b>Rossiya</b>	29,7	33,7	16,7	19,4	2	3
<b>Turkiya</b>	7,4	8,8	4,1	5,1	5	4
<b>Qirg'iziston</b>	6,7	7,1	3,8	4,1	7	5
<b>Koreya Respublikasi</b>	6,5	4,6	3,7	2,7	6	6
<b>Tojikiston</b>	3,8	2,3	2,2	1,3	9	7
<b>Ekvador</b>	0,4	0,9	0,2	0,5	12	8
<b>Gonkong</b>	0,1	1,0	0,1	0,6	13	9
<b>Germaniya</b>	10,4	1,5	5,9	0,8	4	10
<b>Eron</b>	0,8	0,5	0,4	0,3	11	11
<b>Belorus</b>	0,9	0,8	0,5	0,4	10	12
<b>Latviya</b>	3,2	0,2	1,8	0,1	8	13


### Xizmatlar importi tarkibi, (%) da

2020-yil yanvar-mart


Xizmatlar importi hajmi 0,6 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 0,3 % ini tashkil etadi. Xizmatlar importi tarkibining ulushi

turizm xizmatlari, moliya, qurilish xizmatlari va telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlaridan iborat bo'ldi.

### 2019-2020-yillarda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga takidlab o'tish kerakki, 2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar hajmi o'tgan yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 4,2 mln. AQSh dollarga kam import qilindi va 173,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi hajmi amalga oshirilgan. Shulardan 9 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Germaniya, Gonkong, Korea Respublikasi va Tojikiston Respublikasi, hamkor davlatlaridan jami import hajmi 162,0 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 98,8 % ni tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:73-249-87-18**